FALSAFA

Nishonov Sarvar Jasur o‘g‘li (Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti v.b., falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); sarvar0202pm@gmail.com)

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YETTI USTUVOR YO‘NALISHIDA IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALAR TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekistonning yaqin besh yildagi taraqqiyot strategiyasidan ko‘zlangan maqsadlar, belgilangan vazifalarni amalga oshirish tamoyillarini jamlagan “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli kitobi hamda Taraqqiyotning yetti ustuvor yo‘nalishining mazmun-mohiyati tahlil qilingan. Jamiyat taraqqiyotining istiqboli, insonlarning baxt-saodati farovon hayot kechirishi millatlar, elatlar, barcha ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi hamkorlik, hamjixatlik munosabatlarning takomillashuvi bilan belgilanadi. Shunga bog‘liq holda, mamlakatimizda millatlararo bag‘rikenglik muhitini shakllantirish borasida ko‘plab sa’y-harakatlar amalga oshirilishi maqolada qayd etilgan.*

Kalit so‘zlar: *taraqqiyot, Harakatlar strategiyasi, Yangi O‘zbekiston strategiyasi, demokratik islohotlar, Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat, inson – jamiyat – davlat, yoshlar daftari.*

Нишонов Сарвар Жасур угли (Ташкентский международный химический институт, и.о., доцента кафедры “Общественно-гуманитарных наук”, доктор философии по философским наукам (PhD); sarvar0202pm@gmail.com.

АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИХ ВОПРОСОВ В СЕМИ ПРИОРИТЕТНЫХ НАПРАВЛЕНИЯХ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. *В данной статье проанализирована книга “Новая стратегия Узбекистана”, в которой изложены цели и принципы реализации намеченных задач Стратегии развития Узбекистана на ближайшие пять лет, а также содержание семи приоритетных направлений развития. Перспективы развития общества, счастье и благополучие людей определяются совершенствованием отношений сотрудничества и единства между нациями, народностями и всеми социальными группами. В связи с этим в статье отмечается, что в нашей стране осуществляются многочисленные усилия по формированию атмосферы межнациональной толерантности.*

Ключевые слова: *развитие, стратегия действий, стратегия нового Узбекистана, демократические реформы, новый Узбекистан – просвещенное общество, человек – общество – государство, тетрадь молодежи.*

Nishonov Sarvar Jasur ugli (Docent of Kimyo International University in Tashkent, Department of Social and Humanities Sciences (PhD); sarvar0202pm@gmail.com)

ANALYSIS OF SOCIO-PHILOSOPHICAL ISSUES IN SEVEN PRIORITY DIRECTIONS OF NEW UZBEKISTAN'S DEVELOPMENT

Annotation. *The article comprehensively analyzes the objectives of Uzbekistan's development strategy for the next five years, the book “New Uzbekistan strategy”, which summarizes the principles of implementation of the specified tasks, as well as the essence of the seven priority directions of development. The prospects for societal development, human happiness, and prosperous living are determined by the improvement of cooperation and solidarity among nations, ethnic groups, and all social strata. In this regard, the article notes that numerous efforts are being undertaken in our country to foster an environment of interethnic tolerance.*

Keywords: *development, strategy of Action, Strategy of New Uzbekistan, democratic reforms, new Uzbekistan – enlightened society, human – society – state”, Book of Youth.*

Kirish. Zamonaviy davlatlarda barcha sohalarning o‘z milliy strategiyasi mavjud bo‘lib, shuningdek, har bir sohaning milliy taraqqiyot dasturi – siyosiy, ilmiy, falsafiy, texnikaviy, tibbiy va hokazo ta’limotlarda alohidalik kasb etadi.

Yangi O‘zbekiston tamoyillari va dasturi strategik jihatdan o‘z oldiga ta’lim va tarbiya orqali axloqiy merosni ilmiy-falsafiy jihatdan tadqiq etishning, milliy g‘oya mohiyatini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirish, ularni xudbinlik, shaxsiyatparastlik, loqaydlik kabi illatlardan xalos etish borasida olib boriladigan ma’naviy va ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Zero, Prezident Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Xalq orzusi Aziziddin Nasafiy, Abu Mu’in Nasafiy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Xoja Ahmad Yassaviy, Zangi ota, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy kabi aziz avliyo bobolarimizni tarbiyaladi, ularning kamoloti va ezgu faoliyatida o‘ziga xos ma’naviy tayanch bo‘ldi” [1;15-b.].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xalq talablarini inobatga olgan holda, Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqildi. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning qabul qilinishi mamlakatimizda tub demokratik islohotlar, transformatsion o‘zgarishlar davrini boshlab berdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilgan ishlar barcha sohalarni qamrab oldi. Eng asosiysi, mamlakatimizda insonning huquq va erkinliklarini, sha’nini, qadr-qimmatini, manfaatlarini, davlat organlarining jamiyat oldida hisobdorligini ta’minlash islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi. Ayniqsa, xalq bilan muloqot qilish, majburiy mehnat va bolalar mehnatini bartaraf etish borasida qilingan ishlar, fuqarolarga ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini oshirishga qaratilgan Davlat xizmatlari agentligi faoliyati, valuta bozorining liberallashtirilishi, propiska tizimining bekor qilinishi va tashqi siyosatda salmoqli yutuqlarga erishilgani e’tiborga loyiq.

Tahlil va natijalar. 2021-yilning sentabr oyida Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekistonning yaqin besh yildagi taraqqiyot strategiyasidan ko‘zlangan maqsadlar, belgilangan vazifalarni amalga oshirish tamoyillarini jamlagan “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli kitobi chop etildi.

Unda Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessansni qurish bo‘yicha qilinayotgan ishlar va milliy taraqqiyot istiqbollari haqida fikr yuritilgan. Ushbu asar “Yangi O‘zbekiston orzusi, bugungi kunimizga nisbatan aytganda, hozirgi davrning taqozosi, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g‘oyaviy-ma’naviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko‘lamli islohotlarimizning yaqqol ifodasidir” [2;13-b.] so‘zlari bilan boshlanadi. “Harakatlar strategiyasi”ning mantiqiy davomi sifatida nashr etilgan ushbu kitob konseptual ahamiyatga ega bo‘lib, unda mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar va kelgusidagi ustuvor vazifalar aniq bayon etilgan. Mazkur kitob yoshlarda Yangi O‘zbekistonning zamonaviy demokratik qiyofasi qanday yaratilayotgani, mamlakatni yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarish uchun belgilab olingan strategik yo‘l to‘g‘risida yaxlit tasavvur hosil qilish imkonini beradi. 2021-yil 24-oktabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi munosabati bilan bo‘lib o‘tgan saylovoldi uchrashuvlarida bildirilgan fikr-mulohazalar, amaliy taklif va tashabbuslar Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasini yanada takomillashtirishga xizmat qildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisida “Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz” mavzusida so‘zlagan nutqida kelgusi besh yilga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlar haqida so‘z yuritildi. Bu muhim konseptual hujjatda islohotlarimizning uzviyligi va davomiyligini ta’minlash maqsadida, “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” degan tamoyil asosiy g‘oya va bosh mezon sifatida kun tartibiga qo‘yildi” [3], deydi Prezident. Qayd etilganidek, ushbu taraqqiyot strategiyasi yetti yo‘nalishdan iborat. Birinchi yo‘nalish erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etishga qaratilgan. Buning uchun kelgusida davlat funksiyalarining katta qismi markazdan hududlarga o‘tkaziladi. Har bir mahallada hokim yordamchisi lavozimi joriy etiladi. Tuman budjeti qo‘shimcha manbalar bilan ta’minlanib, mahallaning alohida jamg‘armasi shakllantiriladi. Markaziy idoralar transformatsiya qilinib, ixcham va samarali boshqaruv tizimi yaratiladi, bir xil yo‘nalishdagi vazifalarni amalga oshirayotgan idoralar optimallashtiriladi. Ikkinchi yo‘nalish adolat va qonun ustuvorligini mustahkamlash, inson qadr-qimmatini ta’minlash vazifalarini qamrab olgan. Shu maqsadda sudlov tizimi va advokatura instituti, huquq-tartibot organlari faoliyati takomillashtiriladi. Tadbirkor va mulkdorlar huquqlarining himoyasi kuchaytiriladi.

Korrupsiyaga barham berishga davlat va jamiyatning barcha kuch va vositalari safarbar etiladi. Bunda aybdorlarni huquqiy javobgarlikka tortish bilan cheklanib qolmasdan, korrupsiyaning sabablarini oldindan bartaraf etish choralari ko‘riladi. Uchinchi yo‘nalishda milliy iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi rejalar bayon etildi. 2030-yilga borib, jon boshiga hisoblaganda, aholi daromadlari o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga chiqish maqsad qilingani aytildi. Bunga, avvalo, xususiy sektorni rag‘batlantirish va uning ulushini oshirish hamda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobidan erishiladi.

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlab, inflatsiya darajasini belgilangan 5 foizgacha pasaytirish choralari ko‘riladi. Aholini uy-joy va toza ichimlik suvi bilan ta’minlash, zamonaviy yo‘l va kommunikatsiya tarmoqlarini barpo etish, jamoat transporti hamda hududlararo qatnovlarni yaxshilash bo‘yicha ham yirik loyihalar amalga oshiriladi. To‘rtinchidan, sifatli ta’lim-tarbiya masalasi doimiy e’tibor markazida bo‘lishi ta’kidlandi. Shu maqsadda o‘qituvchilarning oylik maoshini izchil oshirib borish va 2025-yilga borib, 1 ming dollar miqdoriga yetkazish ko‘zda tutilgan. Yangi maktablar qurish, mavjudlarining moddiy-

texnik bazasini mustahkamlash, sohaning barcha bosqichlari o‘rtasida uzviylikni ta’minlashga qaratilgan Milliy ta’lim dasturi ishlab chiqiladi. Aholi salomatligini saqlash uchun barcha sharoit yaratiladi. Kelgusi besh yilda oliy toifali shifokorlar maoshini ham 1 ming dollar ekvivalentiga yetkazish mo‘ljallanmoqda. Viloyat, tuman va shaharlarda ixtisoslashgan tibbiy xizmatlar ko‘lami kengaytiriladi. Davlat tibbiy sug‘urta tizimi ishga tushirilib, mablag‘ aniq bemorga bog‘langan holda ajratiladi. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish muhim vazifa bo‘lib qoladi. Beshinchi yo‘nalishga, asosan, ma’naviy va ma’rifiy sohalar rivojlantiriladi. Shu maqsadda “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi amalga oshiriladi. Madaniyat va san’atni yuksaltirish, yoshlarni sog‘lom e’tiqod ruhida tarbiyalash, millatlararo hamjihatlik va o‘zaro hurmatni mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratiladi. Oltinchidan, global muammolarning milliy va mintaqaviy darajadagi yechimlarini topish, bu boradagi barcha sa’y-harakatlarni uyg‘unlashtirish zarurligi ta’kidlandi. Xususan, ekologik tahdidlarning salbiy ta’siri ortib borayotgani qayd etildi. Orolbo‘yini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi sifatida rivojlantirish, Butunjahon ekologiya xartiyasini ishlab chiqish masalalariga to‘xtalib o‘tildi. Yettinchi yo‘nalishda mamlakatdagi tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish borasidagi vazifalar o‘z ifodasini topgan. Qurolli Kuchlarimizning qudrati yanada oshirilishi, harbiylarning jangovar shayligi, jismoniy va ma’naviy tayyorgarligi kuchaytirilishi aytildi. Mazkur nutqda mamlakat rahbari kelgusi besh yil uchun ustuvor yo‘nalishlarni belgilab berar ekan, yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari eng oliy qadriyat ekanligini alohida ta’kidlab o‘tdi. Ma’ruzaning e’tiborli jihatlaridan biri shundaki, Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasida birinchi o‘ringa shaxs, inson qadri yuqori o‘ringa qo‘yilib, “inson – jamiyat – davlat” degan yangi tamoyil asosida davlat va jamiyat boshqaruvini tashkil etadi. Bir so‘z bilan aytganda, amaliy natija, inson manfaati, uning qadr-qimmati bosh maqsadga aylangan. Tan olib aytish joizki, o‘tgan 5 yilda ijtimoiy sohani rivojlantirish borasida qator tizimli islohotlar amalga oshirildi va ijobiy natijalarga erishildi, biroq, shu bilan birga, mazkur sohada samarali mexanizmlarni yaratishga to‘sqinlik qilayotgan qator muammo va kamchiliklar ham yo‘q emas. Kelgusi 5 yilda bu borada ijtimoiy yo‘nalishdagi islohotlar alohida ahamiyatga ega, albatta. O‘tgan yillar mobaynida ijtimoiy sohada amalga oshirilgan ishlarga nazar soladigan bo‘lsak, ijtimoiy himoya va doimiy yordamga muhtoj shaxslar bilan ishlashning “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” kabi yangicha ishlash mexanizmi joriy etildi. Ijtimoiy nafaqa bilan ta’minlanadigan aholi soni qariyb 1,5 barobar oshirildi.

Mazkur nutqda muallim va murabbiylar, professor-o‘qituvchilarga alohida e’tibor qaratilib, 2025-yilga borib, oliy toifali o‘qituvchilarning oylik maoshini ekvivalent hisobida 1 ming dollarga yetkazilishi, o‘ylaymizki, barchaga birdek ma’qul bo‘ldi. Raqamlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, maktabgacha ta’limdagi qamrov darajasi 2017-yilda 27,7 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, hozirda 62 foizni tashkil qilmoqda, 2030-yilga borib esa mazkur ko‘rsatkichni 80 foizga yetkazish maqsad qilinganligi ushbu sohada ham ulkan marralarni qo‘yayotganligimizdan dalolat beradi. Xalqimiz salomatligini ta’minlash doimo ustuvor vazifa bo‘lgan. 2017-yilda sog‘liqni saqlash tizimiga budjetdan ajratilgan jami mablag‘lar 7,1 trillion so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2020-yilga kelib, bu ko‘rsatkich 14,8 trillion so‘mga yetdi.

Prezident o‘z nutqida ushbu sohaga yo‘naltiriladigan mablag‘larni 2 barobar oshirish, jumladan, kelgusi besh yilda oliy toifali shifokorlar maoshini ekvivalent hisobida 1 ming dollarga yetkazish mo‘ljallanayotganini e’lon qilishi mazkur tizimda faoliyat olib borayotgan zahmatkash shifokorlarning mehnatlariga davlat tarafidan bo‘layotgan yuksak e’tibor namunasi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Shavkat Mirziyoyevning “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch 84 va imkoniyatlarini safarbar etamiz” [4;146-b.], degan fikrlari g‘ayrat bag‘ishlamoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, keng ko‘lamli islohotlar jarayoni izchil davom etib, ular sermahsul bo‘lishidan butun xalqimiz manfaatdor.

Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda barcha davlat va jamoat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari ham kamarbasta bo‘lishiga umid qilamiz. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi milliy rivojlanishimizning yangi bosqichini boshlab beradi hamda xalqimizni umumiy maqsadlar yo‘lida birlashtirib turadigan yaxlit ma’naviy asos va mezonga aylanishiga ishonchimiz komil.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2021, 15-bet.
(2). Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2021, 11-bet.

(3). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o‘z lavozimiga kirishishiga bag‘ishlangan tantanali marosimda kelgusi besh yilga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlar to‘g‘risida so‘zlagan nutqi. 2021-yil 6-noyabr.

(4). Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. “O‘zbekiston”, 2016, 146-bet.

Kuyliyev Bobur Tulkinovich (Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti “Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi)

GLOBAL AXBOROT MAKONIDA MEM VA SIMVOLIKA: MA’NAVIY-SIYOSIY KONTEKST

Annotatsiya*. Maqolada memlar va ramzlar hodisasi global axborot makonida jamoatchilik fikrini ma’naviy-siyosiy jihatdan boshqarish uchun qo‘llanilishi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Raqamli artefaktlar sifatida memlar tezda tarqalish va ommaviy auditoriya tasavvurini shakllantirish bo‘yicha o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, ramziylik esa jamiyatni hissiy va g‘oyaviy safarbar etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy qadriyatlar, siyosiy qarashlar va madaniy o‘ziga xoslikka memlar va ramzlarning ta’sir etish mexanizmlari tahliliga alohida e’tibor qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *memlar, ramziy belgilar, global axborot maydoni, ongni boshqarish, jamoatchilik fikri, ma’naviy qadriyatlar, siyosiy aloqa, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy madaniyat, raqamli targ‘ibot.*

Куйлиев Ббур Тулкинович (старший преподаватель кафедры “Социальные науки, педагогика и психология” Ташкентского Педиатрического медицинского института)

МЕМ И СИМВОЛИКА В ГЛОБАЛЬНОМ ИНФОРМАЦИОННОМ ПРОСТРАНСТВЕ: ДУХОВНО-ПОЛИТИЧЕСКИЙ КОНТЕКСТ

Аннотация. *В статье анализируется феномен мемов и символов с точки зрения их применения для духовно-политического управления общественным мнением в глобальном информационном пространстве. В качестве цифровых артефактов мемы обладают свойством быстро распространяться и формировать представления массовой аудитории, а символика играет важную роль в эмоциональной и идейной мобилизации общества. Особое внимание уделяется анализу механизмов влияния мемов и символов на духовные ценности, политические взгляды и культурную самобытность.*

Ключевые слова: *мемы, символические знаки, глобальное информационное пространство, управление сознанием, общественное мнение, духовные ценности, политическая коммуникация, социальные сети, массовая культура, цифровая пропаганда.*

Kuyliyev Bobur Tulkinovich (Senior Lecturer of the Department of Social Sciences, Pedagogy and Psychology at Tashkent Pediatric Medical Institute)

MEMES AND SYMBOLISM IN THE GLOBAL INFORMATION SPIRITUAL AND POLITICAL CONTEXT

Annotation. *The article analyzes the phenomenon of memes and symbols in terms of their application for spiritual and political management of public opinion in the global information space. Memes, as digital artifacts, possess the ability to spread rapidly and shape the perceptions of mass audiences, while symbolism plays an important role in the emotional and ideological mobilization of society. Special attention is given to analyzing the mechanisms by which memes and symbols influence spiritual values, political views, and cultural identity.*

Key words: *memes, symbolic signs, global information space, mind control, public opinion, spiritual values, political communication, social networks, mass culture, digital propaganda.*

Kirish (Introduction). Zamonaviy global axborot makonida memlar va ramzlar jamoatchilik fikrini shakllantirishda o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Ular raqamlashtirish va ijtimoiy tarmoqlar hukmronligi davrida kuchli ta’sir o‘tkazish salohiyatiga ega bo‘lib, tez tarqalishi, odamlarda hissiy munosabat uyg‘otishi va murakkab ma’naviy-siyosiy masalalar bo‘yicha jamoaviy tushunchani shakllantirishga qodir ekanligi bilan bog‘liq. Memlar va ramzlar axborot ta’sirining samarali vositalariga aylanib, jamoatchilik ongiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Memlar ommaviy madaniyat mahsuli sifatida, ko‘pincha, yengil, hazil va zararsiz vizual-matnli unsurlar tarzida taqdim etilsa-da, ularning asl ma’nosi oddiy ko‘ngilochar vositadan ancha chuqurroqdir. Memlarning yashirin kuchi murakkab g‘oyalarni keng ommaga tushunarli bo‘lgan sodda tasvirlarga aylantira olishda namoyon bo‘ladi. Ular osonlik bilan qabul qilinib, ishonchni uyg‘otishi va ma’naviy hamda siyosiy qadriyatlarni mustahkamlash yoki yo‘q qilishda vosita bo‘lishi mumkin.